

O'ZBEK VA XITOIY MAQOLLARIDA ONA OBRAZINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Qurbonova Xurshida Farrux qizi

O'zDJTU, Sharq filologiyasi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek va Xitoy xalq maqollarida ona obrazining lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy nuqtayi nazardan o'rganiladi. Tadqiqot davomida maqollardagi ona timsolining tarbiyaviy, axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy vazifalari tahlil qilinib, ikki xalq folkloridagi ona obrazining umumiylik va farqlari belgilangan.

Kalit so'zlar: ona obrazi, xalq maqollari, lingvokulturologiya, O'zbek madaniyati, Xitoy madaniyati, qadriyatlar, tarbiya, folklore.

Аннотация. В данной статье с сравнительной точки зрения рассматриваются лингвокультурологические особенности образа матери в узбекских и китайских народных пословицах. В ходе исследования анализируются воспитательные, нравственные, духовные и социальные функции образа матери в пословицах, а также выявляются сходства и различия данного образа в фольклоре двух народов.

Ключевые слова: образ матери, народные пословицы, лингвокультурология, узбекская культура, китайская культура, ценности, воспитание, фольклор.

Abstract. This article examines the linguocultural features of the image of the mother in Uzbek and Chinese folk proverbs from a comparative perspective. The study analyzes the educational, moral, spiritual, and social functions of the mother figure in proverbs and identifies the similarities and differences in its representation in the folklore of the two nations.

Keywords: image of the mother, folk proverbs, linguoculturology, Uzbek culture, Chinese culture, values, upbringing, folklore.

Kirish. Har bir xalqning og'zaki ijodi, ayniqsa xalq maqollari – bu uning merosi, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi qimmatli manbadir. Maqollarda tasvirlangan personajlar, ularning xulq-atvori va munosabatlari, xalqning o'ziga xos lingvokulturologik xususiyatlarini, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Ona obrazi esa barcha xalqlarning folklorida universal ramz bo'lib, mehr, tarbiya va muqaddaslik belgisidir. O'zbek va Xitoy xalqlari o'zlarining tarixiy, madaniy va ijtimoiy yo'llari bo'yicha o'ziga xos o'zgarishlar bor bo'lsa-da, oilaviy qadriyatlar, ayniqsa onaning roli ikki xalqning mentalitetida katta ahamiyat ega. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan O'zbek va Xitoy xalq maqollaridagi ona obrazini tahlil qilish – bu ikki xalqning qadriyatlarini, tarbiyaviy qarashlarini va tilning madaniy mazmunlarini, usullarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada O'zbek va Xitoy xalq maqollaridagi ona obrazining lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tarzda tahlil qilinadi, ularning umumiyliklari va farqlari belgilangan va bu farqlarning madaniy-tarixiy sabablari ochib beriladi.

Asosiy qism. Lingvokulturologiya va xalq maqollarida ona obrazining o'rni. Lingvokulturologiya – til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi fan va til birliklarining madaniy mazmunini, xalqning qadriyatlari, obriyatlarini va dunyoqarashini ifodalash usullarini tahlil qiladi. Xalq maqollari esa lingvokulturologik

tadqiqotlarning eng muhim manbalaridan bo'lib, unda xalqning og'zaki tilida qadriyatlari, g'oyalari va belgilari eng to'g'ridan-to'g'ri aks etadi. Ona obrazi uchun ikki xalqning maqollarida o'ziga xos lingvistik atamalar va metaforalar ishlatiladi – bu belgilari uning lingvokulturologik xususiyatlarini anglatadi. Masalan, O'zbek tilida «ona» bilan bog'liq «onaning o'rnini dunyoda hech kim bosolmaydi», «ona duosi – dengiz kabi deraz» kabi afsonalar va Xitoy tilida «muqaddas ona», «ona sevgisi – sonsiz» kabi birikmalar, maqollarda ona obrazining ma'naviy ahamiyatini til orqali ta'kidlaydi. Shunday qilib, maqollardagi ona obrazining tasvirlanishi, uning xulq-atvori va rolini ifodalash – bu ikki xalqning lingvokulturologik xususiyatlari uchun muhim ko'rsatkichlardan biri. O'zbek xalq maqollaridagi ona obrazi, qadimiy turkiy madaniyati bilan uzviy bog'liq deyishimiz mumkin. U oilaning yuragi, jamiyatning axloqiy ustuni va farzand tarbiyasining bosh mas'uli, madrasa sifatida madaniy ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Faol tarbiyaviy rol va axloqiy fazilatlar. O'zbek maqollarida ona obrazi doimo mehribon sifatida tasvirlanadi – uning bu xususiyatlari til orqali ochib beriladi: «ona oqilliq bilan farzandni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi», «ona mehri bilan oilani birlashtiradi» kabi iboralar maqollarda tez-tez ishlatiladi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» maqolida asl ona mehribonligi va axloqiy fazilatlar Zumradga meros bo'lib, bu fazilatlar qizning baxtga erishishiga sabab bo'ladi. O'gay ona esa zulm, hirs va befarqlik timsoli sifatida tasvirlanadi, bu esa asl ona obrazining axloqiy rolining ahamiyatini oshiradi. Lingvistik jihatdan, ona uchun «mehribon», «oqila», «fidoyi» kabi salbiy emas, balki ijobiy sifatlar ishlatiladi, bu esa O'zbek xalqining onaga berilgan aksiologik bahosini bildiradi. «Bo'ri bilan echki» maqolida ham echki ona farzandlarini bo'ridan himoya qilish uchun jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, bu obraz O'zbek xalqning onaning fidoyilik xususiyatini madaniy ifodalaydi.

Xitoy xalq maqollaridagi ona obrazining lingvokulturologik xususiyatlari. Xitoy xalq maqollaridagi ona obrazi, Konfutsiy madaniyati, oilaviy iyerarxiya va «孝» (shukuriyat, vafo, ona-otaga hurmat) qadriyatlar orqali singdiriladi. Xitoy madaniyatida ona – oilaning muhim a'zosi, uning roli farzandlarni tarbiyalash, oilaviy urf-odatlarini saqlab qolish va jamiyatning axloqiy tartibini ta'minlab berishidir.

«孝Xiao» qadriyati asosidagi tarbiyaviy rol. Konfutsiy madaniyatidagi «孝xiao» qadriyati Xitoy maqollaridagi ona obrazining asosiy lingvokulturologik xususiyatidir – bu farzandlarning ona-otaga bo'lgan hurmatini va shukuriyatni anglatadi. Maqollarda ona obrazi farzandlariga «孝xiao» qadriyatini o'rgatadi, bu esa Xitoy jamiyatining axloqiy asoslaridan biri. Masalan, «孟母三迁Meng Mu San Qian» (Meng Ziyning onasi uch marta ko'ch o'tadi) maqolida Meng Ziyning onasi farzandining tarbiyasi uchun uch marta turli joylarga ko'ch o'tadi, bu ona obrazining faol tarbiyaviy rolini va «xiao» qadriyatini o'rgatishga bo'lgan iztiromini tasvirlaydi. Lingvistik jihatdan, maqollarda «muqaddas ona», «ona sevgisi – yerdan tog'gacha» kabi ijobiy iboralar ishlatiladi, bu esa Xitoy xalqning onaga berilgan ma'naviy qadriyatni anglatadi.

Xulosa. O'zbek va Xitoy xalq maqollaridagi ona obraz – bu ikki xalqning madaniy qadriyatlari, tarbiyaviy qarashlarini va lingvokulturologik xususiyatlarini aks ettiruvchi universal ramz. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan, ikki folklorlarda ham ona obrazi mehribon, oqila, fidoyi va faol tarbiyaviy rol o'ynaydigan sifatida tasvirlanadi – bu oilaviy qadriyatlarining umumiyliklaridan. Ammo tarixiy, madaniy va ijtimoiy sabablar tufayli, ona obrazining lingvokulturologik xususiyatlarida farqlar mavjud: O'zbek

maqollaridagi ona obrazi qadimiy turkiy kollektivizm va jamiyatning axloqiy ustuni sifatida tasvirlanadi bo'lsa, Xitoy maqollaridagi ona obrazi Konfutsiy «xiao» qadriyati va oilaviy iyerarxiyaga asoslangan. Lingvistik jihatdan, ikki tilda ona uchun o'ziga xos afsonalar, metaforalar va iboralar ishlatiladi – bu til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning eng yaxshi namunasidir. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, xalq maqollaridagi ona obrazining lingvokulturologik xususiyatlari – bu xalqning madaniy merosini va dunyoqarashini ifodalash usuli bo'lib, bu xususiyatlarni o'rganish – bu turli xalqlarning madaniy umumiyliklarini va farqlarini aniqlash imkonini beradi. Ona obrazining universal qadriyati, har qanday madaniy farqlarga qaramay, barcha xalqlarning og'zaki ijodida doimiy va muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov, B. Folklor va qadriyat. Toshkent: Universitet, 2015.
2. Xudoyberdiyeva, N. O'zbek ertaklarining aksiologik tahlili. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
3. Rahmatullayeva, T. O'zbek xalq og'zaki ijodida ayol obrazi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Rasulov, A. O'zbek folklorining poetikasi. Toshkent: Fan, 1992.
5. Mirzayev, T. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
6. Propp, V. Morphology of the Folktale. Texas University Press, 1968.
7. Thompson, S. Motif-Index of Folk Literature. Indiana University Press, 2004.
8. Zhang, L. Xitoy xalq maqollaridagi ayni obrazlari va madaniy qadriyatlari. Beijing: Xitoy Milliy Universiteti nashriyoti, 2019.
9. Li, M. Konfutsiy madaniyati va Xitoy folklori. Shanghai: Shanghai Madaniyat nashriyoti, 2020.
10. Wang, H. Xitoy xalq og'zaki ijodida oilaviy qadriyatlari. Guangzhou: Guangdong Nashriyoti, 2018.
11. O'zbek xalq ertaklari. I-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008.
12. Xitoy xalq maqollari to'plami. Beijing: Xitoy Folklor Instituti nashriyoti, 2017.